



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujaev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamon Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48
15.	KORXONALARGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH SHAKLLARI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	51
16.	YASHIL SUG'URTANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR <i>Yo'ldosheva Aziza Muzaffar qizi</i>	54
17.	O'ZBEKISTONDA MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ANDERRAYTING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Alimov Ilhomjon Ikromovich</i>	57
18.	KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING DAROMADINI OSHIRISH STRATEGIYALARI <i>Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich</i>	60
19.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI STATISTIK TAHLILI <i>Razikova Gulmira Sharifovna</i>	63
20.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	67
21.	ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLAR <i>Murodov Javlonbek Jurabek o'g'li</i>	68
22.	XARAJATLARNI HISOBGA OLIISHDA JAVOBGARLIK MARKAZLARINI TASHKIL ETISH KONSEPTUAL ASOSLARI <i>Turkmanov A'zam Saydullayevich</i>	71
23.	СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ В РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ И РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН <i>Д.Х. Бухарова, У.И. Тухманазаров</i>	74
24.	DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING NAZARIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</i>	80

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasini mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Solliqlar va solliqqa tortish” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasini dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).



DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING NAZARIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası mudiri, i.f.n., professor

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/286

Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlar mamlakatlar iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi, jahon kapital bozoridagi vaziyat, kutilmagan global inqirozli holatlar davlat tomonidan tartibga soluvchi davlat iqtisodiy siyosatlaridan bo'lgan davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida qator ilmiy nashrlarda zikr etilayotgan byudjet-soliq siyosatining kutilmagan tashqi zarbalarni yumshatib turuvchi dastak va vositalarini ilmiy mushohada qilish hamda uni amaliyotga qo'llash bo'yicha xulosalar berish dolzarbdır. Maqolada davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy fan tarixidagi maktab ta'limotlari va zamonaviy qarashlar evolyusiyasi ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Davlat fiskal siyosati, byudjet-soliq siyosati, merkantizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm, keynschilik, monetarizm, taklif nazariyasi, zamonaviy iqtisodiy maktab, davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari, byudjet taqchilligi, soliqlar, soliq stavkasi, soliq yuki.

Abstract: Changes in the world economy, the transformation of the economies of countries, the situation in the world capital market, and unexpected global crises require research to study the theoretical foundations of state fiscal (budgetary-tax) policy, which is one of the state economic policies regulated by the state. In particular, it is urgent to scientifically observe the levers and tools of budgetary and tax policy, which are mentioned in a number of scientific publications as the driving force of the economy in the present era, and to draw conclusions on its practical application. The article also presents the evolution of school doctrines and modern views in the history of economic science on state fiscal (budgetary-tax) policy.

Keywords: Government fiscal policy, budget-tax policy, mercantilism, classical economic school, marginalism, Keynesianism, monetarism, supply theory, modern economic school, state budget expenditures and revenues, budget deficit, taxes, tax rate, tax burden.

Абстрактный: Изменения в мировой экономике, трансформация национальных экономик, ситуация на мировом рынке капитала и неожиданные глобальные кризисы требуют углубленного изучения теоретических основ фискальной (бюджетно-налоговой) политики, являющейся одним из важнейших инструментов государственного регулирования экономики. Особенно актуально в современных условиях научное осмысление рычагов и инструментов бюджетно-налоговой политики, которые в ряде научных публикаций рассматриваются как движущая сила экономики, а также формулирование практических рекомендаций по их применению. В статье представлена эволюция научных школ и современных подходов в истории экономической мысли, включая меркантилизм, классическую школу, кейнсианство, монетаризм и современную экономическую теорию.

Ключевые слова: фискальная политика государства, бюджетно-налоговая политика, меркантилизм, классическая экономическая школа, маржинализм, кейнсианство, монетаризм, теория предложения, современная экономическая школа, государственные расходы и доходы, бюджетный дефицит, налоги, налоговая ставка, налоговая нагрузка.

Kirish

Jahon uzra geosiyosiy ziddiyatlar va savdo-sotiqdagi murakkabliklar, tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishlari, davlatlar o'rtasidagi qarzdorlik muammosiga qaramay 2025-2026 yillarda dunyo iqtisodiyotining barqaror o'sishi prognoz qilinmoqda. Lekin, 2019 va 2026 yillarda global iqtisodiy o'sish 3,3 foizdan past etishi 2025 yillardagi tarixiy o'sish sur'ati o'rtacha 3,7 foizdan past ekanligi ko'rsatilmoqda[1]. Aynan, davlatlar moliyaviy barqarorlik va byudjet mustahkamligiga erishish uchun pul-kredit siyosatini yumshatishlari[2], fiskal siyosat qanday bo'lmasin davlat qarzini barqaror traektoriyaga qo'yish uchun konsolidatsiyani ta'minlashi va vaziyatga yanada moslashuvchan javob berish uchun zarur bo'lgan maydonni tiklashi kerak. Shu sababdan jahonning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy tanglik holatlarini yumshatish va moliyaviy barqarorlikni taminlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatini takomillashtirish hamda iqtisodiy faollikka qaratilgan ilmiy nazariya asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy faollikka qaratilgan dastak va vositalaridan oqilona foydalanish orqali «...barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash», bu sohada «2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish» masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo, respublikada olib borilayotgan islohotlar orqali so'nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, davlat qarzi va

davlat byudjet taqchilligining tobora oshib borishi hamda iqtisodiyot tarmoqlaridagi nomutanosibliklarning mavjudligi sababli barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda davlatning fiskal (byudjet-soliq) siyosatini takomillashtirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababdan bugungi kunda «soliq yukini izchil ravishda pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, shuningdek soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning eng muhim shartlaridir» [3] kabi vazifalarining belgilab qo'yilishi davlatning fiskal (byudjet-soliq) siyosatidan samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotidagi vaziyat mamlakatlar o'rtasidagi qarzdorlik va yaqin besh yil ichidagi global pandemiya qolgan asoratlar davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatiga bo'lgan qarashlar evolyusiyasini ilmiy tadqiq etish hamda uning ustuvor yo'nalishlarini belgilashni taqozo etmoqda.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyot ilmi taraqqiyoti davrida davlatning byudjet-soliq siyosatining mohiyatiga bo'lgan yondashuvlar bir necha bor ko'rib chiqilgan va turlicha talqin qilingan. Barchamizga ma'lumki, iqtisodiy adabiyotlarimizda soliqlar, soliq siyosati, soliq stavkalari, davlat daromadlari, davlat xarajatlari kabi tushunchalar juda tez-tez ishlatiladi. Iqtisodiy tafakkurning rivojlanish bosqichlarini davlatning byudjet-soliq siyosatining mohiyatini belgilashda moliyaviy siyosatning shakllanishi va

rivojlanishiga ilmiy maktab yoki yo'nalishlarning qo'shgan hissasini o'rganishga asoslanadi. Mahalliy va xorij tadqiqotlarining keng doirasi fiskal siyosatning mohiyatini o'zgartirishning turli yondashuv jihatlariga bag'ishlangan. Dastlabki, iqtisodiy ta'limotlardan merkantilizm iqtisodiy tafakkuri shakllanishining fundamental bosqichini moliya siyosatining mohiyatiga alohida urg'u beradi. Eramizdan avval XVI asrdagi merkantilistlarning asosiy xizmatlari fiskal siyosatni davlat daromadlari va xarajatlarini boshqarishga qaratilgan siyosat sifatida belgilashga urinish bo'lib, daromadning asosiy manbalari domenlar, do'st va ittifoqchi davlatlarning berilgan sovg'alari hamda yig'implari, o'lpon, tovarlar eksporti, importi uchun bojxona to'lovlari, savdodan olingan daromadlardir. Shundan ko'rinadiki, soliqlar o'sha paytlarda ham asosiy daromad manbai bo'lmagan. Shuningdek, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi faqat yer islohoti moliyasi sifatidagi byudjet-soliq siyosati bilan cheklangan. Yana bir merkantilistlar namoyondasi T. Man (XVI—XVII asrlar) yer egalarini xalq boyligining asosi bo'lgan yerning egasi, deb hisoblagan, chunki barcha foyda aynan shu yerdan kelgan. Shu sababli yer egalari barcha soliqlarni to'laydilar va davlatning butun yukini o'z zimmlariga oladilar, deb e'tirof etadi. Demak, yer egalari olinadigan soliqlar davlatning o'ziga yuklangan vazifalarni bajarilishini ta'minlovchi fiskal siyosatning asosiy quroli bo'lgan. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va qaror topishi bilan merkantilizm siyosatiga xos bo'lgan bojxona imtiyoz va to'siqlari, bojlar kabi usullar faolroq qo'llanila boshlandi. Iqtisodiyot ilmining rivojlanishi byudjet-soliq siyosatining mohiyatiga qaratilgan navbatdagi bosqich esa klassik iqtisodiy maktabdir. Merkantilistlardan farqli o'laroq, bu maktab vakillari soliqlarga davlat byudjeti daromadlarini to'ldirishning asosiy manbai sifatida qarashgan va qaysi soliqlar samarali hisoblansa ana shu soliq turi ma'qullangan. Klassik iqtisodiy maktabining asoschilaridan biri hisoblangan U.Petti (XVII asr) soliqlarni mamlakat boyligiga ta'siri etuvchi omil sifatida qaragan. Aynan soliqlar mamlakatdagi pul miqdoriga ta'sir qilmaydi va shuning uchun mamlakat boyligini oshirmaydi yoki kamaytirmaydi, deb ta'kidlagan. Uning fikricha, agar soliqlar mahalliy tovarlarga sarflansa, ular umuman aholiga zarar keltirmaydi, faqat mamlakat boyligining ko'payishiga hamda davlat xarajatlarini qoplashga xizmat qiladi, deb ko'rsatadi. U soliq qanchalik katta bo'lmasin, agar u barcha qatlam o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlansa, unda hech kim boyligidan mahrum bo'lmaydi, deb hisoblagan va davlat xarajatlarining turlarini ham o'rganib, ularning ko'payish sabablarini aniqlagan. Shuningdek, soliq to'lovchilar har qanday xavf-xatar yuzaga kelganda davlatning tartibini saqlash va mulkni muhofaza qilish xarajatlarini moliyalashtirishlari uchun davlatga soliq to'lashlari shart ekanligini aniqlaydi. [4] D.Rikardo (XVIII—XIX asrlar) byudjet-soliq siyosatini o'rganar ekan, soliqlarni faqat fiskal maqsadlaridagina qo'llash kerak, deb hisoblaydi hamda soliqlarga kapitalning qaytarilmas shakllanishi va to'planishi jarayoniga to'sqinlik qiluvchi muqarrar "yovuzlik manbai" sifatida qaraydi. U soliqlar, narxlar va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslashga harakat qiladi va har qanday mahsulot solinadigan soliq uni ishlab chiqarishdan olinadigan foyda stavkasini pasaytirishga intiladi[5]. Shuningdek, ular bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri soliqlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilab beradi va birinchi navbatda eng zarur tovarlar emas, balki hashamatli buyumlar soliqqa tortilishi kerak, deb hisoblaydi. J.Simondi (XVIII—XIX asrlar) byudjet-soliq siyosati muammolari bilan shug'ullanib, soliqlarni aholining jamiyatdan oladigan qulayliklari uchun to'laydigan bahosi, deb talqin qiladi. U soliqlar davlatni barqarorlashtiruvchi, jamoat tartibini saqlovchi, shaxs va mulk daxlsizligining kafolatlovchi hamda milliy bozorning barqaror faoliyatini ta'minlovchi rolini yuqori baholagan[6]. Shunday qilib, klassik iqtisodiy maktabning fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy mohiyatiga qo'shgan hissasi quyidagicha: fiskal (byudjet-soliq) siyosat davlat va xususiy sektor o'rtasida mablag'larning qayta taqsimlanishiga olib keladi va byudjet uning quroli bo'lib, uning yordamida davlat o'z funksiyalarini bajarish uchun moliyaviy ta'minotni shu orqali amalga oshiradi. Moliyaviy siyosat haqidagi g'oyalar rivojlanishining keyingi bosqichini marksizm deb belgilash mumkin. Iqtisodiyot ilmining buyuklari safidan o'srin olgan K.Marks (XVIII-XIX asrlar) soliqlar davlat daromadining asosiy manbai bo'lib, hukmron sinf sifatida burjuaziya manfaatlariga xizmat qilish uchun zarur. U soliqlar davlatning iqtisodiy jihatdan mavjudligidan dalolat beruvchi timsoldir, deb hisoblagan[7]. Iqtisodiyot fanidagi keyingi bosqichni belgilab beruvchi marjinalistik yo'nalish vakillari byudjet-soliq siyosatining mohiyatining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Mazkur oqim vakillari byudjet-soliq siyosatini shakllantirishdagi asosiy g'oyasi

marjinal foydalilik nazariyasi nuqtai-nazaridan soliqlarni o'zgartirishdir. Marjinalistlar, xususan, A.Marshall (XIX—XX asrlar) bilvosita soliqlar va davlat farovonligi o'rtasidagi munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi va shu orqali iqtisodiyot holatiga ta'sir etuvchi davlatning aralashuvini zarur nazarda tutdilar. Uning fikricha, xalq farovonligini oshirish uchun daromadi pasaygan tarmoqlarni bilvosita soliq (narx ustasi) bilan soliqqa tortish, daromadi oshgan tarmoqlarni subsidiyalash, doimiy daromadli tarmoqlarni esa davlat aralashuvizis qoldirish zarur[8]. Binobarin, byudjet-soliq siyosatining mohiyati aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatadigan soliq turlarini qisqartirishdan iborat. Marjinalistlar namoyondasi K.Viksell (XIX-XX asrlar) byudjet-soliq siyosati muammolarini ko'rib chiqib, byudjet daromadlarining asosiy qismini A.Marshall ta'kidlaganidek egri soliqlar hisobiga emas, balki daromad va mulkka to'lanadigan to'g'ridan-to'g'ri soliqlar hisobiga shakllantirish kerak, deb hisoblagan. K.Viksellning fikricha, soliqlar davlat xarajatlarini uzluksiz moliyalashtirish usuli, deb hisoblab, soliqlarga oid barcha qarorlar xarajatlar evaziga kompleks tarzda qabul qilinishi va davlat imtiyozlarini aks ettirishi kerak[9]. Shunga ko'ra, K.Viksell byudjet-soliq siyosati muammolarini uning davlat farovonligiga tatbiq etilishida chegaraviy foydalilik nazariyasi nuqtai-nazaridan ham ko'rib chiqadi. K. Viksellning qarashlari E.Lindal (XIX—XX asrlar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topadi. U soliqlarni davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning narxi sifatida qaraydi. E.Lindal soliq to'lovchilar turli darajadagi boylilarga ega bo'lganligi sababli turli soliq stavkalari jamiyatda muvozanatni ta'minlashga asoslanib, progressiv soliqqa tortish g'oyasiga amal qiladi[10]. Soliq siyosati muammolariga keyingi e'tiborni A.Pigu qaratadi, u jamg'armalarga nisbatan kamsituvchi bo'lgan daromad solig'ini yaxshilash zarur, deb hisoblaydi. Natijada, jamg'armalarni rag'batlantirishga qaratilgan xarajatlarga umumiy soliq joriy etilishini asoslaydi. Shuningdek, u daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini belgilash va tizimlashtirish masalalarini yoritib beradi[11]. A. Pigu (XIX-XX asrlar) fikricha, mehnat faoliyatini rag'batlantirish maqsadida mehnat resurslariga soliq joriy etish maqsadga muvofiqdir. Fiskal siyosati rivojlanishi keyingi bosqichining eng muhim namoyondasi bu shakl shubhasiz J.M.Keyns va uning iqtisodiy maktab vakillaridir. Ular fiskal siyosatni iqtisodiyotni o'z-o'zini tartibga solish mexanizmining mavjudligini shubha ostiga qo'yadilar, bu bilan yalpi talab hajmiga fiskal siyosat vositalari, ya'ni soliqlar va davlat xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurligini ko'rsatib o'tadilar. J.M.Keynsning fikricha, zamonaviy bozor iqtisodiyotining nomukammalligi to'liq bandlik darajasida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlamay olmaydi, shuning uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarur bo'lib, uning vositalaridan biri iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, iste'molga moyillikni rag'batlantirish va aholi bandligini oshirishga qaratilgan fiskal siyosatdir, deb ko'rsatadi. J.M.Keyns investitsion faollikni rag'batlantiradigan soliq imtiyozlarining sezilarli miqdorini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiy o'sish davrida soliqlarni ko'paytirish, tanazzul davrida esa aksincha, kamaytirish kerak, deb hisoblaydi. Soliqlarni pasaytirish iqtisodiyotning kutilmagan zarbalarga uchramaslik uchun eng istiqbolli bo'lgan tarmoq monopoliyalari va korxonalar uchun soliq imtiyozlarini oshirishdan iborat. Daromad solig'i avtomatik stabilizator bo'lib, o'sish davrida o'sib borayotgan daromadning ko'proq ulushini davlat byudjetiga olib qo'yishni ta'minlashga qodir bo'ladi, bu esa talabni cheklaydi va pasayish davrida daromadlarning pasayishini hisobga oladi[12]. Keynschilik qarashlariga sodiq qolgan P.Samuelson (XX—XXI asrlar) soliqlar iqtisodiy o'sish va barqarorlikni rag'batlantirish, shuningdek, ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirishga yordam beradi, deb bir vaqtning o'zida fiskal siyosatni iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim vositasi, deb hisoblaydi. Moliyaviy siyosatning mohiyati haqidagi g'oyalar rivojlanishining navbatdagi bosqichi taklif iqtisodiyoti maktabi bo'lib, uning vakili A.Laffer (XX-XXI asrlar) hisoblanadi. Keyns maktabi qarashlaridan farqli o'laroq, u soliq stavkalari ta'sirida bo'lgan yalpi taklifning rolini ta'kidlaydi. Taklif iqtisodiga ko'ra, soliqlarning haddan tashqari yuqori darajasi xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, yalpi taklifni kamaytiradi, inflyatsiyani oshishiga olib keladi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Shunday qilib, A.Laffer byudjet-soliq siyosatini soliq tushumlarining maksimal hajmining byudjetga optimal soliq stavkalariga bog'liqligini o'rnatish orqali davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati deb tushunadi[13]. M.Fridman (XX—XXI asrlar) monetarizm vakili bo'lib, davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuvi haqidagi fikrga amal qildi va

pul massasining o'sish sur'atini bevosita tartibga solishga ustuvor ahamiyat beradi. U fiskal siyosat tufayli muomaladagi pulning notekis o'sishi umumiy iqtisodiy beqarorlikka olib keladi, deb hisoblagan. M.Fridman ana shu e'tiqodlardan kelib chiqib, soliq stavkasini pasaytirish tadbirkorlik faolligi, bandlik, investitsiyalar o'sishiga, shuningdek, inflyatsiyaning pasayishiga va nihoyat, iqtisodiy o'sishga yordam beradi, deb hisoblab, soliqlarni kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, taklif nazariyasi va monetarizm iqtisodiy maktab vakillarining fiskal siyosatning iqtisodiy mohiyatiga qo'shgan hissasi soliq imtiyozlarini qo'llash va bir vaqtning o'zida soliq stavkalarini pasaytirish orqali pul massasini tartibga solish orqali fiskal siyosatni iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mexanizmi sifatida belgilashdan iborat. J.Stiglis (XX—XXI-asrlar) fiskal siyosat muammolariga, xususan, soliq yuki, kapital solig'i, optimal soliqlarga tortish, soliq islohotlariga alohida e'tibor beradi. U soliq tizimining iqtisodiy samaradorligi, ma'muriy jihatdan soddaligi, siyosiy mas'uliyat va moslashuvchanlik hamda adolatlilikka asoslangan besh tamoyilini belgilab beradi. J.Stiglis o'z e'tiborini optimal soliq tuzilmasiga qaratadi, bu uning fikricha, davlat turmush farovonligini maksimal darajada oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy tanlov nazariyasi vakillaridan J.Byukenen (XX-XXI asrlar) byudjet-soliq siyosati muammolarini ko'rib chiqib[14], davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish yo'li bilan byudjet barqarorligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy islohot zarurligini tahlil qiladi hamda asoslab beradi. U soliq sohasida hukumat vakolatlarini konstitutsiyaviy cheklashni talab qiladi, chunki uning fikricha, hukumat o'z oldiga yagona maqsadni qo'ygan. Fiskal siyosatning mohiyati haqidagi g'oyalarni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi MDH iqtisodchi olimlari deb belgilash mumkin. Soliqlarning vazifalari va funksiyalarini byudjet-soliq siyosatining eng muhim vositasi sifatida belgilash, byudjet siyosatini amalga oshirish doirasida byudjet balansi nazariyasini ishlab chiqish XIX-XX asrlarda qator iqtisodchilar M.M.Alekseenko, S.I.Ilovaiskiy, A.A.Sokolov, N.I.Yanjul va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ular fiskal siyosat asoslarini o'rganar ekanlar, birinchi navbatda taqsimlash vositasi va narxning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan soliqlarning majburiyligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, soliqlarni belgilash, undirish va taqsimlash davlatning funksiyalaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tadilar. Shunday qilib, davlat bir vaqtning o'zida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish va tartibga solishi kerak. Bunda soliqlar iqtisodiy siyosatning quroli bo'lib, bozor iqtisodiyoti evolyusiyasi sodir bo'ladigan natijaviy kuchga tenglashtiriladi. N.I.Turgenev byudjet-soliq siyosatini rivojlantirish muammolariga e'tibor berib, bunda eng avvalo o'rta soliqni o'rnatish va soliqlarni teng taqsimlash tamoyilini ko'rsatib o'tadi. U soliq manbalari va turlarini, soliqlarni undirish va undirish tartibini belgilab beradi. I.I.Yanjul fiskal siyosat muammolarini tahlil qilib, davlatning fiskal manfaatlarini soliq to'lovchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning turmush darajasini pasaytirmasdan va takror ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatini hisobga olgan holda qondirilishi kerakligini ko'rsatib o'tadi. U soliqlarni takomillashtirish nazariyasini ishlab chiqishga hissa qo'shdi va soliqlarni almashtirish zaruriyati bo'lgan asosiy tamoyillarini aniqladi hamda uning asosiy g'oyasi sotuvchiga tushadigan soliqni xaridorga o'tkazish edi. Fiskal siyosat haqidagi g'oyalarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida byudjet-soliq siyosatini tartibga solish usullari, vositalari va mexanizmlarini o'rganish, davlatning byudjet-soliq siyosati samaradorligini tahlil qilish muammolari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borgan qator iqtisodchi olimlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. MDH iqtisodchi olimlaridan E.V.Balasskiy iqtisodiyotga fiskal siyosatning samaradorligini baholash va uni optimallashtirish yo'llarini aniqlash kerakligini ko'rsatib o'tadi. U fiskal siyosat tomonidan tartibga solish samaradorligini sifat va miqdoriy usullardan foydalangan holda baholashni taklif qiladi. O'z navbatida, sifat usuli soliq qonunchiligini yaxlit holda takomillashtirishga, miqdoriy usul esa ratsional soliq stavkalarini belgilash orqali fiskal mexanizmini optimallashtirishga qaratadi. Miqdoriy usulni qo'llash "Laffer egri chizig'i", deb ataladigan chiziq yordamida amalga oshiriladi, unga ko'ra davlat byudjeti soliq tushumlarining soliq yuki darajasiga bog'liqligi o'rganiladi. Yana bir xorijlik iqtisodchi olimlar V.I.Barxatov, G.P.Juravlevalar fiskal siyosatni davlat tomonidan barqarorlashtirish siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganib chiqadi hamda bu iqtisodiy vaziyatning holatiga ta'sir qilish mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rsatib beradi. Fiskal siyosat tovar bozoridagi makroiqtisodiy muvozanatni aks ettiruvchi Keynes modeli

doirasida ko'rib chiqiladi. O'z navbatida, soliq tizimining faoliyati bilan bog'liq jamiyat farovonligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olish imkonini beruvchi sog'lom fiskal siyosatni shakllantirishda soliq yukini va soliq miqdorini o'zgartirish yo'nalishlarini o'rganish lozimligi haqidagi yondashuvlarini ilgari surishadi.



1-rasm. Iqtisodiy maktab ta'limotlarida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining rivojlanish bosqichlari

Ular tomonidan asosiy e'tibor qaratilgan jihati bu soliqlarni manipulyatsiya qilish va shu orqali davlatga tushadigan mablag'larni samarali sarflaydigan fiskal siyosatni va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Yana bir iqtisodchi olim L.N.Likova fiskal siyosatni o'rganishda soliq tizimining bir qator muammolariga, ya'ni soliq yukining hajmiga, byudjet taqchilligi va profitsiti sharoitida soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Muallif o'z asarlarida davlat byudjeti daromadlarining eksportga bog'liqligini aniqlab, ayrim soliqlarni undirish xususiyatlarini tavsiflagan holda soliq tizimini takomillashtirish kerakligi va yo'llarini taklif qiladi. O.V.Lugovoy, P.A.Trutin, E.V.Shkrebela fiskal siyosat iqtisodiyotdagi har bir sub'ektning soliq potensialini baholash zarurligini ta'kidlab o'tadi hamda shundan kelib chiqib har bir sub'ektning soliq to'lovchilari bir xil soliq stavkalarini qo'llash imkoniyatini ko'rsatishi aniqlaydi. M.V.Kazakova byudjetga tushadigan soliq tushumlarini tarkibini bozor bilan bog'liq bo'lgan qismlarga bo'lish orqali soliq yukini hamda iqtisodiyotdagi yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarini tahlil qilish nuqtai-nazaridan o'rganadi. Tarkibiy qismlarga o'rta muddatli tashqi iqtisodiy vaziyatda soliq tushumlari, konyuktura tarkibiy qismlari esa energiya resurslariga jahon narxlarining qulay dinamikasi tufayli kelib chiqadigan soliq tushumlaridir. D.G.Chernik fiskal siyosat muammolarini o'rganar ekan, iqtisodiyotga davlat ta'sirining kuchli vositasi bo'lgan soliq imtiyozlarini joriy etish zarurligi haqidagi fikrga amal qiladi.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning "fiskal siyosati" tushunchasini ta'riflashga yondashuvlari 1-jadvalda keltirilgan.

Moliyaviy siyosat konsepsiyasining mohiyatiga oid xorijiy va mahalliy mualliflar tomonidan taqdim etilgan qarashlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, uni ta'riflashda yagona yondashilgan yondashuv mavjud emas. Ba'zi ilmiy maktablar fiskal siyosatni davlatning iqtisodiyotga aralashuv shakli sifatida, boshqalari esa davlat byudjetini to'ldirish manbai, uchinchi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Keynes iqtisod maktabi vakillari fiskal siyosatni yalpi talabga ham, yalpi taklifga ham ta'sir qiluvchi, shuningdek, iqtisodiy sikldagi tebranihlarni yumshatishga qaratilgan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida qaraydilar. Keynes maktabi vakillari tomonidan taklif etilgan fiskal siyosatning talqinidan farqli o'laroq, ishda taklif etilgan yondashuvning o'ziga xosligi, Keynes nazariyasi va uning izdoshlariga xos bo'lgan fiskal siyosatning makroiqtisodiy qarashlarni mikroiqtisodiy asoslar bilan to'ldirishda, ya'ni milliy iqtisodiyot sub'ektlari va uy xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilishidir. O'z navbatida, milliy daromadning bir qismini o'zlashtirish va begonalashtirishga oid milliy iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida fiskal siyosatini amalga oshirish jarayonida rivojlanadigan bu iqtisodiy munosabatlar ko'p jihatdan fiskal siyosatining samaradorligini belgilaydi. Fiskal siyosat deganda milliy iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida ayrim sub'ektlardan olingan daromatlarni boshqalar foydasiga ajratish va davlat vakili bo'lgan sub'ekt tomonidan ajratilgan daromatlarni o'zlashtirishga oid muntazamlik va davriylik bilan tavsiflangan iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Bu ta'rif fiskal siyosat haqida nafaqat



makroiqtisodiy vositalar majmui, balki uy xo'jaliklari, firmalar, davlat organlari va boshqa iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi o'ziga xos manfaatlar ega bo'lgan munosabatlarning murakkab tizimi sifatida gapirishga imkon beradi. Ushbu sub'ektlarning byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish jarayonida ishtirok etishi ular o'rtasida daromadlarni begonalashtirish va o'zlashtirish bo'yicha qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Aynan mana shu qarama-qarshiliklar fiskal siyosat samaradorligini pasaytiradi va davlatning fiskal siyosatni amalga oshirish jarayonida asosiy sa'y-harakatlari aynan ana shu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, 2020 yillardagi global pandemiya moliyaviy siyosat bo'yicha yondashuvlarni yanada takomillashtirish kerakligidan dalolat berdi hamda mazkur mavzu doirasidagi ilmiy va xorijiy adabiyotlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Mazkur adabiyotlarda Covid-19 pandemiyasining rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasiga ta'siri yo'nalishlarini, dunyoning yetakchi davlatlarining zamonaviy fiskal siyosatida ustuvorliklarini o'zgartirish, global iqtisodiy inqiroz ta'siri ostida soliqqa tortishdagi transformasion o'zgarishlarni hamda qator tajribalar asosida hozirgi vaqtda fiskal siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish bilan cheklangan. Muammo shundaki, oldingi nazariya va amaliyot 2020 yillarning boshidagi nazariya va amaliyot o'rtasida noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiyot tarixiy sahnasidagi 1930 yillardagi "Buyuk depressiya", 2008-2009 yillardagi "Buyuk retsessiya" paytida davlat tomonidan turli moliyaviy chora-tadbirlar amalda qo'llanilgan va bu asosan fond bozori bilan bevosita bog'liq bo'lgan. 2020 yilda boshlangan Covid-19 global pandemiya tufayli dunyo bo'yicha iqtisodiy faollikni muddatsiz to'xtatishga qaratilgan harakatlar natijasida amalda qo'llanilgan "Buyuk karantin" qator davlatlar iqtisodiyotining inqiroz yoqasiga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

2021 boshlariga kelib, Covid-19 pandemiyasining og'ir moliyaviy oqibatlar va ulardan aziyat chekkan soha va tarmoqlar iqtisodiyoti bilan bog'liq mavzular tadqiqotchilar orasida juda mashhur bo'ldi. Jumladan,

Rossiyada pandemiya davrida davlat moliya tizimining iqtisodiyotni tartibga solishdagi fiskal va monetar yondashuvlari G'arb iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni iqtisodchi olim Ye.Lusskaya tomonidan tadqiq etildi. Shuningdek Ye.Lusskaya tomonidan fiskal va monetar chora tadbirlari orqali global pandemiyasi inqirozidan chiqishning o'ziga xos strategiyasini o'zining boshqa tadqiqot asarida ko'rsatib o'tadi[15].

Fiskal siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini ayniqsa global pandemiya davrida so'ng iqtisodiyotni tiklashdagi rolini L.Petrova o'z tadqiqotida batafsilroq tushuntirib beradi. Shuningdek, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida global pandemiya davrida so'ng fiskal va monetar chora tadbirlarining iqtisodiyotga ta'siri ko'plab bir gurux iqtisodchi olimlar asarlarida va tadqiqotlarida o'rganildi. Zamonaviy sharoitda monetar va fiskal siyosat o'rtasidagi bog'liqlik jihatlarining zamonaviy ko'rinishlari iqtisodchi olimlar P.Jia va G.R.Steelelar tomonidan ilmiy maqollarida o'rganilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlar R.Van Dender, P.O'Reilly va S.Perretlar jahon miqyosida mamlakatlarda Covid-19 global pandemiya davridagi og'ir oqibatlariga qarshi qo'llanilgan soliq va fiskal siyosat chora tadbirlari taxlili amalga oshirildi. Taxlil qilingan tadqiqot asarlaridan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, global pandemiya davrida so'ng mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi fiskal chora-tadbirlaridan iqtisodiyotga ta'sir etishning eng maqbul vositasi soliqlar ekanligini aniqlandi.

Shu bilan birga pandemiya davrida davlat fiskal siyosatining ustuvor yo'nalishlari va maqsadlarini belgilashda yana ham uning qo'shimcha tarzda o'rganishni taqozo etadi. Fiskal siyosatni yangi yo'nalishda tadqiq etishda albatta uni tashkil etuvchi vosita va dastaklarini yaxlit holda davlat byudjeti daromadlarini to'ldiruvchi jihatlariga asosiy e'tiborni qaratishni taqozo etadi. Ma'lumki, dunyo bo'yicha ko'pchilik mamlakatlarida iqtisodiy inqirozdan so'ng davlat qarzlarini bartaraf etishda va byudjet barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha ravishda to'liq hajmdagi davlat mulklarini xususiyashtirish ishlarini olib borish hamda soliq siyosatini takomillashtirish orqali mahalliy qarzlarni qattiq nazorat qilishni taqozo etadi. Shu bilan birga koronavirus inqirozining dastlabki boshlanish davrida iqtisodiyotni jonlantirish maqsadida qo'llanilgan emissiya jarayoni O'rema-Kopernik-Greshemning inflyatsion soliq tamoyilining asosini tashkil etib, zamonaviy uzoq muddatli inqirozni va uning og'ir oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshirildi. Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, inqiroz davrida davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yuzasidan fikrimizcha, yuqorida xorijiy tajribalar taxlili natijalariga suyanib ish tutishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekistonda olib borilgan davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining hozirgi taraqqiyotga erishish bosqichida istiqbolda har ikkala davrga mos hamda yanada progressiv rivojlanishiga hissa qo'shadigan byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashni taqozo etadi. Shuningdek, fiskal siyosat iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalarning texnologik imkoniyatlarini orqali topadigan yashirin daromadlarini nazorat qilishi kerak. Masalan bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sektorida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning kapitalashuviga va ular daromadlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Mazkur vaziyatdan foydalanganlar asosan yutqazganlar hisobiga boyiganlar, ammo ijtimoiy jihatdan muhim va tizimni tashkil etuvchi sohalarga tegishli soliq solish vositalari orqali erishish mumkin.

Ikkinchidan, fiskal siyosat davlatning o'sib borayotgan xarajatlari orqali aholining faqatgina zaruriyat tug'ilgan qismigagina amaliy yordam qo'lini cho'zishi kerak. Bularga inqiroz davrida ishini yo'qotganlarga, yosh bolali oilalarga, keksa fuqarolar va haqiqatdan ham ijtimoiy himoyaga muhtojlarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, inqiroz davrida yuqori daromad olganlarga esa qattiq soliq siyosatini yuritish ham zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. http://www.forecast.ru/_ARCHIVE/Presentations/DBelousov/WESP2025.pdf Мировое экономическое положение и перспективы 2025 16 января 2025 г.
2. International monetary fund world economic outlook international monetary fund Global Growth: Divergent and Uncertain 2025 JAN.
3. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш. Мирзиёевнинг "Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2025 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги 2024 йил 24 декабрдаги ЎПҚ-1014-сон Ўзбекистон Республикасининг қонуни. <https://lex.uz/docs/7279923>

4. Молия сиёсати, солиқлар ва солиққа тортиш. Тахрир кенгаши Беганов В. ва бошқ. Т.Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998; Шодмонов ва бошқ. Иқтисодиёт назарияси. Маърузалар матни. Т. ДИТАФ 2001; Носова С.С. Экономическая теория: краткий курс. Учеб. пособия.- М.:Гуманит. Изд. Центр Владос, 2001.
5. Петти, У. Избранные статьи : Трактат о налогах и сборах [Текст] / У. Петти. - Москва : Ось-89, 1997. - 112 с.
6. Рикардо, Д. Начала политической экономии и налогового обложения [Текст] : избранное / Д. Рикардо ; пер. с англ., предисл. Л. Н. Клюкина. - Москва : ЭКСМО, 2008. - 168-169 с.
7. Симонди, Ж. Новые начала политэкономии, или о богатстве в его отношении к народонаселению [Текст] / Ж. Симонд. - Москва : Соцэкгиз, 1936. 135-149 с.
8. Маркс, К. Капитал [Текст] / К. Маркс // Сочинения : в 50 т. / К. Маркс, Ф. Энгельс. - 2-е изд. - Москва : Гос. изд-во полит, лит-ры, 1955. - Т. 4. - 638 с.
9. Маршалл, А. Принципы экономической науки [Текст] / А. Маршалл. Москва : Прогресс. 1993. - 594 с.
10. Вискель, К. Исследования в области теории общественных финансов [Текст] / К. Вискель. - Москва, 1896.
11. Линдаль, Э. Исследования в области теории денег и капитала [Текст] / Э. Линдаль. -Москва, 1939.
12. Пигу, А. Экономическая теория благосостояния [Текст] / А. Пигу ; общ. ред. С. П. Аукуционек. - Москва : Прогресс, 1985. - 527 с.
13. Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег [Текст] /Дж. М. Кейнс. - Москва : ЭКСМО, 2007. - 960 с
14. J.M.Buchanan. Fiscal Theory and Political Economy. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1960; J.M.Buchanan, W.C.Stubblebine. «Externality». Economi-ca, №29, November 1962, p.371-384; J.M.Buchanan. «An Economic Theory of Clubs». Economica, № 32, February 1965,p. 1-14; J.M.Buchanan. Public Finance in Democratic Process, Chapel Hill: University of North Caroline Press, 1966.
15. Луцкая Е. Е. Монетарная и фискальная политика: дискуссии о роли в системе государственного регулирования // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия 2: Экономика. Реферативный журнал. 2020. № 3. С. 37–42.
16. Asatullaev Kh.S. ROLE OF STATE FISCAL (BUDGET-TAX) POLICY IN INCREASE OF POPULATION EMPLOYMENT. Annali d'Italia №51/2024. ISSN 3572-2436, 11.
17. Асатуллаев Х.С. ВЛИЯНИЕ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ СТРАНЫ. Russian Economic Bulletin / Российский экономический вестник 2021, Том 4, №1
18. О. Т. Astanukulov, H. S. Asatullaev Foreign investment as a factor in economic development. Journal of Economics and Education. 2018, No. 1, p. 120.
19. Strategic Support for Accounting of the Investment Process in the Innovation Industry Olim T. Astanukulov, Khurshid S. Asatullaev, Nodira I. Saidakhmedova and Otamurod T. Ergashev. Journal of Advanced Research in Law and Economics. Autumn 2019. Volume X, Issue 6(44).
20. О. Astanukulov, H. Asatullaev Ways to increase investment activity of economic enterprises. Society and Innovation - Society and Innovation - Special Issue - 4 (2021) / ISSN 2181-1415.